

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOV TEMURBEK ISLOMOVICH

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH JARAYONLARIGA AKADEMIK MUSTAQILLIK
PRINSIPLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI (RIVOJLANGAN
DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
педагогическим наукам**

**Table of contents of the dissertation of Dostor of Ssienses (DSc) in
pedagogisal ssienses**

Ismoilov Temurbek Islomovich

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish istiqbollari (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida).....3

Исмоилов Темурбек Ислмович

Перспективы внедрения принципов академической независимости в процессы организации и управления деятельностью высших учебных заведений (на примере опыта развитых стран).....35

Ismoilov Temurbek Islomovich

Prospects for the implementation of the principles of asademis independense in the prosesses of organizing and managing the astivities of higher yedusational institutions (on the yexample of the yexperiense of developed sountries).....69

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of publisations76

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ISMOILOV TEMURBEK ISLOMOVICH

OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH JARAYONLARIGA AKADEMIK MUSTAQILLIK
PRINSIPLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI (RIVOJLANGAN
DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)

13.00.07 – Ta'limda menejment

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.DSc/Ped164 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzilida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

p.f.d., professor S.T.Turg'unov

Rasmiy opponentlar:

Usmonov Botir Shukrillaevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Xujaniyazov Sardor Umarovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yarmatov Raximboy Baxromovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy Kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2023 yil "_____" kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.) Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; y e-mail: sspi_kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "_____" kuni tarqatildi.
(2023 yil "_____"dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

U. N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d (DSc), dotsent

F. T.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, geografiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh. Botirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jaxonda inson kapitaliga e'tibor kuchayib, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi islohotlar aynan OTMlarning yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishini, boshqaruv tuzilmasini o'zgartirish asosida yangicha faoliyat yuritish sharoitiga o'tishni talab qilmqoda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimida avtoritar va ma'muriy-byurokratik boshqaruv modelidan voz kechgan holda korporativ boshqaruv usuli keng yoyilmoqda¹. Dunyoning ilg'or xalqaro oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarda belgilangan maqsadlarga boshqaruv tizimini isloh qilmasdan, ilg'or boshqaruv usullaridan biri bo'lgan akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etmasdan erishib bo'lmazligi ma'lum bo'lmoqda. Shu bois xalqaro ta'lim maydonida oliy ta'lim boshqaruviga institutsional avtonomiya modelini joriy etish asosida akademik mustaqillikka erishish, ta'lim sifatini oshirish, yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash tizimini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Dunyoning ilg'or oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, demokratik va liberal tamoyillarni joriy etishga doir ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, «...universitetlarga mustaqillik berish boshqaruv jarayonidagi muammolar va ular muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omilidir². Shuning uchun akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etilishi OTMlarning hozirgi iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy voqelikka moslashishi hamda rivojlanishiga muhim sharoit yaratadi. Shu bois, ko'plab ilmiy tadqiqot markazlari³da oliy ta'lim tizimida professional boshqaruv, akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etish borasida turli fan sohalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Oliy ta'limda akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etish va uning jamiyat taraqqiyoti talablariga muvofiqligini ta'minlash zamonaviy metodlarini yaratish, uning natijasi sifatida kadrlar tayyorlashni bugungi kundagi mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojga muvofiqlashtirish masalalariga oid muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda ham kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga doir ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. “2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”⁴ hamda O'zbekiston

¹ Education Management Corporation (EMC) (<http://www.edu-mgt.com>).

² Салми Д. Создание университетов мирового класса. пер. с англ. - М.: Издательство «Весь Мир», 2009. –С 132.

³ United States Department of Education (USDE) (AQIII), Council for Higher Education Accreditation (CHEA)) (AQIII), Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, Harvard University, California Institute of Technology, University of Cambridge, University of Oxford, University College London, Imperial College London, University of Chicago, ETH Zurich – Swiss Federal Institute of Technology, Nanyang Technological University, Singapore, Ecole Polytechnique Fédérale de Lausanne, Princeton University, Cornell University, National University of Singapore

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон фармони.

Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish, oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish⁵ kabi qator vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar asosida oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini yangicha standartlarga moslashtirish, ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini o'rganish, samarali jihatlarini milliy ta'lim tizimiga joriy etish vazifalari dolzarflik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»gi PF-60-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-son qarorlari, 2019 yil 11 iyuldagi «Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5763-son farmoni, «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4391-son qarori va 2019 yil 8 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda PQ-60-son "Davlat Oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi va PQ-61-son "Davlat Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda taqdim etilayotgan dissertatsiya muayyan manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Oliy ta'lim tizimida boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Sentre

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5847-сон фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон.

of insreasing to pedagogisal qualifisation on base Manshesters university (Buyuk Britaniya), Assosiation for Yedusational Sommunications and Teshnology – AEST (AQSh), Belfield pedagogisal university (Germaniya), Miyagi pedagogika universiteti (Yaponiya), Rossiya ta'lim akademiyasi (Rossiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Rossiya neft va gaz universitetida (Rossiya) olib borilmoqda.

Dunyoda oliy ta'lim tizimida menedjmentni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan: ta'lim tizimini rivojlantirishni samarali boshqarishning tashkiliy va strategik mexanizmlari takomillashtirilgan (Sentre of insreasing to pedagogisal qualifisation on base Manshesters university, Buyuk Britaniya); oliy ta'lim muassasalarining biznes-korporatsiyalarga o'tishi mexanizmlari ishlab chiqilgan (Assosiation for Yedusational Sommunications and Teshnology – AEST, AQSh); boshqaruv organlari bilan o'quv-tarbiya muassasalari o'rtasidagi yanada demokratik munosabatlarga o'tishni ta'minlash modeli yaratilgan (Belfield pedagogisal university, Germaniya); ta'limning tobora yuqori darajasiga intilishga umummilliy intilish tendensiyalari asoslangan (Miyagi pedagogika universiteti, Yaponiya), o'quvchi va talabalarni barqaror rivojlanish vazifalarini hal qilishga tayyorlashda uzviylikni ta'minlash texnologiyalari amaliyotga joriy qilingan (Rossiya ta'lim akademiyasi), ta'limni boshqarishni markazlashdan chiqarish – uning turli darajalari o'rtasida kompetensiya, vakolat va javobgarlikni taqsimlash mexanizmlari takomillashtirilgan (Moskva davlat universiteti).

Jahon oliy ta'lim tizimi boshqaruvida mustaqillik *tamoyillarini joriy etish* bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD) muassasasi shular jumlasidandir. Misol uchun, 1994 yilda YuNESKO va Umumjahon banki oliy ta'limni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari asosida chop etilgan “Oliy ta'lim: tajriba saboqlari”ida ham daromad darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlarda ta'limga investissiyani oshirish, ta'lim boshqaruviga yangicha tamoyillarni olib kirish katta samara berishini ilgari surgan holda, eng asosiysi, oliy ta'limga mablag'larni investitsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar zarurligi ham e'tirof qilgan bo'lsa, 2000-yilda YuNESKO va Umumjahon bankining birgalikdagi tashabbuslari natijasi sifatida nashr qilingan “Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim: xavf-xatar va istiqbollar”ida ham rivojlanishning har qanday umumiy strategiyasida oliy ta'limning ahamiyati ko'rsatilgan bo'lsa, 2002-yildagi “Bilim jamiyatini qurish: uchlamchi ta'lim sohasidagi yangi takliflar”nomli boshqa bir nashrida oliy ta'lim mamlakatning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda raqobatbardosh bo'lishiga kuchli hissa qo'shishi tadqiq etiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekisitonda oliy ta'lim boshqaruvini zamonaviylashtirish va unga yangicha tamoyillarni olib kirish masalalari bilan shug'ullangan olimlaridan A.N.Samadov, A.Sh.Bekmurodov, A.T.Yusupov, B.A.Begalov, B.Sh.Usmonov, M.A.Ikramov, B.X.Raximov, D.N.Raximova, D.X.Nabiev, G.N.Axunova, I.U.Majidov, M.T.Mirsoliyeva,

M.X.Saidov, N.K.Yo‘ldoshev, R.A.Raxmanbaeva, R.B.Yarmatov,
R.I.Nurimbetov, S.S.Gulyamov, S.T.Turg‘unov, S.U.Xujaniyazov,
Sh.D.Ergashxodjaeva, Sh.N.Zaynutdinov, T.Sh.Shodiev, Sh.Qurbonov⁶lar
tomonidan o‘rganilgan.

Oliy ta‘lim boshqaruviga akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etishning samaradorligi, akademik erkinlikni shakllantirishning konseptual, metodologik va tashkiliy-pedagogik jihatlari, professional boshqaruvning OTM tashkiliy va iqtisodiy rivojlanishiga ta‘siri, OTMlardagi boshqaruv kadrlari: rektor, prorektor, dekan, kafedra mudirlari faoliyatidagi professionlizmning namoyon bo‘lishi va takomillashtirish zarurati MDH davlatlari olimlaridan N.V.Demidova, S.V.Sulima, S.A. Drujilov, K.I. Morozova, S.D.Reznik, S.M.Vasin, O.A. Sazykina, O. Vychkova, L.Verbiskaya, V.Kasevich, M. V.Niyazova, V. Ye.Varavenko, Yoxan G.Vissema, F. Altbax, P.Yu. Grishina, R. N. Abramov, E. V. Galajinskiy, A. O. Grudzinskiy, R. Dim, V.Konnov, M Repina va boshqalar tomonidan o‘rganilgan hamda tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar berilgan⁷.

⁶ Ахунова Г. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари: Монография. – Т., 2005. – 244 б.; Зайнутдинов Ш.Н., Очилов А.О. Олий таълим муассасаларини бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Иқтисодиёт ва таълим. – 2010. – 2. – 83-87-б.; Йўлдошев Н.Қ. Стратегик менежмент. – Т., 2011. – 450 с.; Нуриббетов Р. Бошқариш самарадорлигини баҳолаш // Жамият ва бошқарув. – 2010. – 4. – 67–68-б.; Рахимов Б.Х., Мажидов И.У. Роль профессионального образования в модернизации страны // Подготовка образованного и интеллектуально развитого поколения – как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации страны. Сборник статей международной конференции. – Т., 2012. – С. 41–43.; Рахимова Д.Н. Управление процессами развития и использования трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ. – Т., 2000. – 225 с.; Рахманбаева Р.А. Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф.дисс. ... д-ра эконом. наук. – Т., 2012. – 50 с.; Саидов М.Х., Исманов М.А. Менеджмент и инновации современного профессионального образования. – Т., 2002. – 79 с.; Очилов А.О., Самадов А.Н. Модель управления трудоустройством выпускников высших образовательных учреждений в Узбекистане // «Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы инновационного развития». Материалы международной научно-практической конференции. – Т., ТГЭУ, 2018. – 3. – С. 276–283.; Юсупов А.Т. Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар давлат аттестацияси: методологик-услубий, норматив-ҳуқуқий ва илмий-ташқилий йўналишлари / А.Т. Юсупов. – Т., 2013. – 648 б.; Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. – Т., 2006. – 592 б.;

⁷ Демидова Н.В., Сулима С.В. Особенности выбора стиля управления в системе высшего образования // Вестник Омского регионального института. 2014. № 1. С. 100–103. Дружилов С.А. Проблемы моббинга на кафедре вуза // Высшее образование в России. 2011. № 6. С. 118–122. Морозова К.И. Некоторые аспекты организационно-управленческой деятельности в образовательном учреждении // Достижения вузовской науки. 2015. № 18. С. 40–43. Резник С.Д., Васин С.М., Сазыкина О.А. Формирование, обучение и развитие управленческого персонала высшего учебного заведения в условиях рыночной экономики. Пенза: ПГАСА, 2003. Резник С. Д., Сазыкина О. А. Моделирование компетенций заведующих кафедрами российских вузов // Russian Journal of Management. М.: ИНФРА-М. 2015. V. 3, Is. 2. С. 140–149. Резник С.Д., Сазыкина О.А. Заведующие кафедрами университетов России: ступени роста. М.: ИНФРА-М, 2016. Резник С. Д., Сазыкина О. А. Управление функциональными процессами на вузовской кафедре: результаты социологического мониторинга заведующих кафедрами российских вузов // Russian Journal of Management. 2015. Т. 3, № 4. С. 407–418. Резник С. Д. (2009) Карьера ректора: какой ей быть? // Университетское управление: практика и анализ. № 5. С. 7–14. Резник С. Д., Фомин Г. Б. (2013) Организация деятельности ректора высшего учебного заведения // Вестник КемГУ. Т. 1. № 1. С. 279–283. Резник С. Д. (2012) Организация, планирование и самоконтроль личной деятельности ректора // Университетское управление: практика и анализ. № 2. С. 80–93. Резник С. Д. (ред.) (2013) Ректоры России: система и механизмы профессионального становления. М.: НИЦ ИНФРА-М. Резник С. Д., Сазыкина О. А. Управленческое воздействие заведующих кафедрами на персонал: результаты мониторинга // Russian Journal of Management. 2016. Т. 4, № 2. С. 184–196. Резник С.Д., Сазыкина О.А. Кафедра российского вуза: вызовы времени // Социологические исследования. 2016. № 8. С. 133–137. Участие в управлении университетом / отв. ред. О. Бычкова. СПб.: Норма, 2016. 120 с. Вербицкая Л., Касевич В. Институциональная автономия и проблема управления в высшем образовании // Высшее образование в России. 2006. № 7. С. 16–20. Ниязова М. В., Варавенко В. Е. Управление процессами реорганизации вузов: принципы, тенденции, риски // Университет. управление: практика и анализ. 2013. №

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayoniga mustaqillik iamoyillarini joriy etish usullarini xorijlik olimlardan Ph.Altbash, K. A. Khoon, R. Shukor, O. Hassan, Z. Saleh, A. Hamzah, R. Ismail, Alden, J, G. Lin, S.K. Katsikas, R.Stishweh, I. Ordorika, P. G. Kielmansegg, Rh. Bushbinde, U.Felt, M.Glanz, M.Henkel, R.L.Geiger, J.F.Volkwein, S.M. Malik, O.S. MsDaniel, P.Lingenfelter, G. A.Jones, Th.Shanahan, P.Goyan, Th.Yestermann, T.Nokkala, M.Steinell va boshqalarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan⁸.

Biroq, hozirga qadar OTMlarda yangicha boshqaruv tamoyillarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilganligiga qaramay, ularni yetarli darajada muammoni yoritadi deb bo'lmaydi. Shunga ko'ra, mazkur masalalar yuzasidan bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilish zarurati mavjud.

Mavzuning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Namangan davlat universitetining ilmiy-

4. С. 59–68. Виссема Йохан Г. Университет третьего поколения: Управление университетом в переходный период. М.: Олимп-Бизнес, 2016. 580 с. Будущее высшего образования и академической профессии: страны БРИК и США / под ред. Ф. Альтбаха и др. Москва: Высшая школа экономики, 2013. Альтбах Ф. Дж., Салми Д. (ред.) (2012) Дорога к академическому совершенству: Становление исследовательских университетов мирового класса. М.: Весь Мир. Гришина П.Ю. Применение педагогического дизайна при разработке программ профессионального обучения для руководителей высшего звена управления // *Лидерство и менеджмент*. — 2016. — Т. 3. — № 1. — С. 33–50. Абрамов Р. Н. (2011) Менеджерализм и академическая профессия. Конфликт и взаимодействие // *Социологические исследования*. № 7. С. 37–47. Галажинский Э. В. (2017) Востребованные компетенции руководителей университетов: мировые тренды vs российские процессы в образовании // *Университетское управление: практика и анализ*. Т. 21. № 2. С. 6–8. Грудзинский А. О. (2004) Стратегическое управление университетом: от плана к инновационной миссии // *Университетское управление: практика и анализ*. № 1. С. 9–20. Дим Р. (2004) «Новый менеджерализм» и высшее образование: управление качеством и продуктивностью работы в университетах Великобритании // *Вопросы образования / Educational Studies Moscow*. № 3. С. 44–56. Коннов В., Репина М. (2015) Эволюция моделей университетского управления от *studium generale* до «предпринимательского университета» // *Международные процессы*. Т. 13. № 1. С. 35–47.

⁸ Altbach, Philip G. 2004. "The Costs and Benefits of World-Class Universities." *Academe* 90 (1, January-February). Retrieved April 10, 2006, from <http://www.aaup.org/AAUP/pubsres/academe/2004/JF/Feat/altb.htm>.; Khoon, K. A., R. Shukor, O. Hassan, Z. Saleh, A. Hamzah, and R. Ismail. 2005. "Hallmark of a World-Class University." *College Student Journal* (December); Alden, J., and G. Lin. 2004. "Benchmarking the Characteristics of a World-Class University: Developing an International Strategy at University Level." Leadership Foundation for Higher Education, London.; Katsikas S.K. The university in the third millennium: Which reforms are needed? Organisation for Economic Co-operation and Development. URL:<http://www.oecd.org/dataoecd/26/12/37051299.pdf>; Stichweh R. (1994) *Wissenschaft, Universitat, Profession — Soziologische Analysen*. Frankfurt am Main: Suhrkamp.; Ordorika I. (2003) The limits of university autonomy: Power and politics at the Universidad Nacional Autónoma de México // *Higher Education*. Vol.46.No.3.P.361–388.; Kielmansegg P. G. (1983) *The university and democracy*. LA: University of California Press.; Buchbinde Rh.(1993) *The market oriented university and the changing role of knowledge*//*Higher Education*. Vol.26.No.3.P.331–347.; Felt U, Glanz M. (2003) *University autonomy in Europe: Changing paradigms in higher education policy. Special case studies decision-making structures and human resources management in Finland, France, Greece, Hungary, Italy, The Netherlands, Spain and the United Kingdom*. University of Vienna.; Henkel M. (2007) *Can academic autonomy survive in the knowledge society? A perspective from Britain* // *Higher Education Research & Development*. Vol.26.No.1.P.87–99.; Geiger R. L. (1987) *Privatization of higher education: International trends & issues / Conference Report*, International Council for Educational Development, Racine, Wisconsin, June 15–18.; Volkwein J.F., Malik S.M. *State regulation and administrative flexibility at public universities* // *Research in Higher Education*, 1997. – 38(1). – pp. 17-42; McDaniel O.C. *The paradigms of governance in higher education system* // *Higher Education Policy*. – 1996. – 9(2). – pp.137-158; Jones G. A., Shanahan Th., Goyan P. *Traditional Governance Structures –Current Policy Pressures: The Academic Senate and Canadian Universities*, Библиотека Йоркского Университета, 2012. – с.2 [Электронный ресурс] <http://pi.library.yorku.ca/dspace/bitstream/handle/10315/2811/Traditional%20G>

tadqiqot ishlari ro'yxatiga kiritilgan. Xususan, tadqiqot universitetning Pedagogika fakulteti Ta'limda menejment kafedrasi tomonidan 2020-2023 yillar uchun belgilab olingan "Oliy ta'lim tizimida akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari" mavzusidagi yo'nalishlariga muvofiq tarzda olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga rivojlangan davlatlar tajribasi asosida akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish bo'yicha ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

akademik mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlar faoliyatini raqamlashtirilgan tizimda baholashning nazariy asoslari boshqaruvchilik kompetensiyalari (management competence), tajribasi va shaxsiy sifatlari, akademik ta'siri (academic credibility) kabi komponentlarning ta'lim determinantlari va rivojlanish vektoriga nisbatan muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini rivojlantirishda marketing-menejmentning yangi elementini qo'llash hamda oliy ta'lim-fan-ishlab shiqarish integrasiyasi natijalarini prognozlashtirish mexanizmlari globallashtirish sharoitida funksional menejmentning optimal metodlarini raqobat muhitining talablariga implemintasiya qilish asosida ishlab chiqish;

shaxsiy samaradorlik strukturasi, resurs yondashuvi texnologiyasi, samaradorlik formulasi, reorganizatsion va relaksatsion yondashuvlardan foydalanish asosida akademik mustaqillik prinsipining asosi bo'lgan "tiyib turish va muvozanatda saqlash" (checks and balances) tizimini joriy etishga yo'naltirilgan rahbar kadrlar faoliyatining innovatsion modelini ishlab chiqish;

oliy ta'limning ichki boshqaruv tizimlariga asoslangan akademik mustaqillik menejmenti modeli vositasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning integratsiyalashgan strategiyalari sentristik, direktiv, liberal va aralash modellarni qiyosiy tahlil etish («benchmarking»)ning rolini kuchaytirish asosida takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini innovatsiyalarning global tablosi talablariga moslashuvchanligini segmental konsolidatsiya (birlashtirish) usulidan foydalanishning tashkiliy, propedevtik, asosiy va yakuniy bosqichlarining o'zaro bog'liqligi funksional va strategik menejment tamoyillari asosida ochib berish;

akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalarida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi sub'ektlarning yuqori kontsentratsiyasi vositasida qulay o'quv muhiti va ilg'or tadqiqotlar uchun resurslar va strategik qarashlarni joriy etish boshqarish imkoniyatini kuzatish, sub'ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, tahlil, ob'ektiv baholash, natijalar bo'yicha boshqaruv, strategiyalarni takomillashtirish asosida ochib berish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida OTMlarda akademik mustaqillik va o'zini-o'zi boshqarish (avtonomiya) prinsiplariga o'tish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida OTMlarda akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishning ilmiy-tashkiliy, konseptual-pedagogik, ierarxik munosabatlar va aloqalarni ta’lim menejmenti doirasida tadqiq etish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy-tadqiqot ishini amalga oshirishda kuzatish, umumlashtirish, tizimli-mantiqli va SWOT-tahlil, pedagogik tajriba o‘tkazish, kuzatish, suhbat, so‘rovnomalarni tarqatish, solishtirish, matematik-statistik tahlil singari ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

akademik mustaqillikka erishgan oliy ta’lim muassasalarida rahbar kadrlar faoliyatini raqamlashtirilgan tizimda baholashning nazariy asoslari boshqaruvchilik kompetensiyalari (management competence), tajribasi va shaxsiy sifatleri, akademik ta’siri (academic credibility) kabi komponentlarning ta’lim determinantlari va rivojlanish vektoriga nisbatan muvofiqligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimini rivojlantirishda marketing-menejmentning yangi elementini qo‘llash hamda oliy ta’lim-fan-ishlab shiqarish integratsiyasi natijalarini prognozlashtirish mexanizmlari globallashtirish sharoitida funksional menejmentning optimal metodlarini raqobat muhitining talablariga implemintasiya qilish asosida ishlab chiqilgan;

shaxsiy samaradorlik strukturasi, resurs yondashuvi texnologiyasi, samaradorlik formulasi, reorganizatsion va relaksatsion yondashuvlardan foydalanish asosida akademik mustaqillik prinsipining asosi bo‘lgan “tiyib turish va muvozanatda saqlash” (checks and balances) tizimini joriy etishga yo‘naltirilgan rahbar kadrlar faoliyatining innovatsion modeli ishlab chiqilgan;

oliy ta’limning ichki boshqaruv tizimlariga asoslangan akademik mustaqillik menejmenti modeli vositasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning integratsiyalashgan strategiyalari sentristik, direktiv, liberal va aralash modellarni qiyosiy tahlil etish («benchmarking»)ning rolini kuchaytirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini innovatsiyalarning global tablosi talablariga moslashuvchanligini segmental konsolidatsiya (birlashtirish) usulidan foydalanishning tashkiliy, propedevtik, asosiy va yakuniy bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi funksional va strategik menejment tamoyillari asosida ochib berilgan;

akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy ta’lim muassasalarida o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi sub’ektlarning yuqori konsentratsiyasi vositasida qulay o‘quv muhiti va ilg‘or tadqiqotlar uchun resurslar va strategik qarashlarni joriy etish boshqarish imkoniyatini kuzatish, sub’ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, tahlil, ob’ektiv baholash, natijalar bo‘yicha boshqaruv, strategiyalarni takomillashtirish asosida ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda foydalanilgan ma’lumotlar rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi,

xulosa, taklif va tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilayotgan tavsiyalar O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida OTMlarda akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishning konseptual-pedagogik tizimini kontrolling menejment tamoyili asosida tashkil etishda foydalanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida OTMlarda akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishning konseptual-pedagogik tizimini ro'yobga chiqarish uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid qarashlar hamda faktik ma'lumotlarga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda natijalarning joriy etilishi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan.

Tadqiqot ishi natijalari O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda yangi yo'nalishlar, fikr-mulohaza va ayrim muammolarning yechimini topishga ko'maklashadi. Dissertatsiyada keltirilgan ma'lumotlar, tahlillar, xulosalar, takliflar va tavsiyalar oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar kadrlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy innovatsiyalarning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'rni va ahamiyati mavzusida amalga oshirilgan tadqiqoti ishi bo'yicha olingan natijalar asosida:

akademik mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlari faoliyatini raqamlashtirilgan tizimda baholashning nazariy asoslari boshqaruvchilik kompetensiyalari (management competence), tajribasi va shaxsiy sifatleri, akademik ta'siri (academic credibility) kabi komponentlarning ta'lim determinantlari va rivojlanish vektoriga nisbatan muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan olingan O'zbekiston Milliy universitetida 2018-2020 yillar davomida bajarilgan PZ-2017093020 raqamli «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek noimdagi O'zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 1 dekabrda 04/11-7755 son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlari faoliyatini raqamlashtirilgan tizimda baholashning nazariy asoslari boshqaruvchilik kompetensiyalari, tajribasi va shaxsiy sifatleri, akademik ta'siri kabi komponentlarning ta'lim determinantlari va rivojlanish vektoriga nisbatan muvofiqligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimini rivojlantirishda marketing-menejmentning yangi elementini qo'llash hamda oliy ta'lim-fan-ishlab shiqarish integrasiyasi natijalarini prognozlashtirish mexanizmlari globallashtirish sharoitida funksional menejmentning optimal metodlarini raqobat muhitining talablariga

implemintasiya qilish asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasida 2021 yilda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga oid chora-tadbirlarini amalga oshirishda hamda 2020-2021 yillardagi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tadbirlar rejasining metodik asoslariga oid o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan. (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazining 2022 yil 28 noyabrdagi 370-son ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi sharoitida oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimini rivojlantirishda marketing-menejmentning yangi elementini qo‘llash hamda oliy ta’lim-fan-ishlab shiqarish integratsiyasi natijalarini prognozlashtirish doir ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga hizmat qilgan;

akademik mustaqillik printsipining asosi bo‘lgan “tiyib turish va muvozanatda saqlash” (checks and balances) tizimini joriy etishda ularni nazorat organi ko‘rsatmalariga amal qilish yoki ruxsat olish zaruriyatisiz o‘z faoliyatini amalga oshipishga imkon berishda rahbar kadrlar faoliyatining innovatsion modeli shaxsiy samaradorlik strukturasi, resurs yondashuvi texnologiyasi, samaradorlik formulasi, reorganizatsion va relaksatsion yondashuvlardan foydalanish asosidagi hulosalardan T.H.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2012-2014 yillarda bajarilgan AI-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasi hamda 2017-2020 yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan. (T.H.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022 yil 22 dekabrdagi 391-son ma’lumotnomasi). Natijada, akademik mustaqillik printsipining asosi bo‘lgan “tiyib turish va muvozanatda saqlash” tizimini joriy etishda ularni nazorat organi ko‘rsatmalariga amal qilish yoki ruxsat olish zaruriyatisiz o‘z faoliyatini amalga oshipishga imkon berishda rahbar kadrlar faoliyatining innovatsion modeli shaxsiy samaradorlik strukturasi, resurs yondashuvi texnologiyasi, samaradorlik formulasini ishlab chiqilishga hizmat qilgan;

oliy ta’limning ichki boshqapuv tizimlariga asoslangan akademik mustaqillik menejment modeli pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning integratsiyalashgan strategiyalarini doimiy diversifikatsiyasi sentristik, direktiv, liberal va aralash modellarni qiyosiy tahlil etish («benchmarking»)ning rolini kuchaytirish asosida takomillashtirilgan taklif va tavsiyalardan 2022 yil 19 dekabrdagi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining «Madaniyat va ma’rifat» telekanalida «Bugun intervyu» ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022 yil 19 dekabrdagi 01-02-03/230 son ma’lumotnomasi). Natijada, oliy ta’limning ichki boshqapuv

tizimlariga asoslangan akademik mustaqillik menejment modeli pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning integratsiyalashgan strategiyalarini doimiy diversifikatsiyasi sentristik, direktiv, liberal va aralash modellarni qiyosiy tahlil etish («benchmarking»)ning rolini kuchaytirishga erishilgan;

mahalliy oliy ta'lim muassasalarining akademik va moliyaviy mustaqilligini innovatsiyalarning global tablosi talablariga moslashuvchanligini ta'minlash orqali raqobatbardoshligini oshirishda segmental konsolidatsiya (birlashtirish) usulidan foydalanishning tashkiliy, propedevtik, asosiy va yakuniy kabi barcha bosqichlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlash funksional va strategik menejment tamoyillari asosida ochib berilgan taklif va tavsiyalaridan T.H.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida 2012-2014 yillarda bajarilgan AI-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasi hamda 2017-2020 yillarda bajarilgan FZ-2016-09081165532 raqamli "Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi fundamental loyhasini amalga oshirishda foydalanilgan. (T.H.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika Fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2022 yil 22 dekabrda 391/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini nazorat qilishning ijtimoiy-pedagogik zarurati strategik menejment tamoyillari asosida ochib berilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishining muhim natijalari yuzasidan 1 ta monografiya, O'zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, ulardan 9 tasi respublika jurnallarida, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 190 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot ob'ekti va predmeti bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiligi, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim tizimida akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston OTMLarida byurokratik boshqaruv modeli

muammolari va boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish zarurati – tashkiliy-pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan, oliygohlarni boshqarishning xorij tajribasi va uni tadbiq etish samaradorligining nazariy jihatlarini bayon etilgan.

Dissertant fikricha, mamlakatning rivojlanish istiqbolini, birinchi navbatda, kadrlar salohiyati va undan foydalanish darajasi belgilab beradi. Respublikamizda olib borilgan islohotlar jarayonida kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlash maqsadida jahon ta'lim standartlari talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy salohiyat darajasini ko'tarish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganib, respublikamiz davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlar olib borish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligini yanada rivojlantirish asosida ularning sifat darajasini ko'tarish va samaradorligini ta'minlash lozim.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda ta'limning ko'pchilik uchun ochiqiligi, teng imkoniyatli bo'lishi, uning samaradorligiga ko'maklashish uchun samarali boshqaruv tamoyillarni ishlab chiqish va isloh qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada oliy ta'limning institutsional erkin faoliyat yuritishi asosida o'zining barcha ishlarini bozor qonuniyatlari asosida yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan mukammal tizimini yaratishga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar, qonunchilik va tashkiliy masalalarda islohotlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlar asosida oliy ta'lim boshqaruvni liberallashtirish, markazlashtirilgan boshqaruvdan voz kechish, oliygohlarga akademik mustaqillik berish va moliyaviy erkinlikni yaratish orqali tizimda raqobatni vujudga keltirish lozimligi kelib chiqmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish, umuman olganda standart o'quv dasturlaridan voz kechgan holda kreativlikni oshirish kerak. Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son «Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»⁹ qarori mazkur jarayonga doir ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa tashkiliy masalalarni ijrosini yangi bosqichga olib chiqishga qaratailgan. Chunki zamonaviy rivojlangan jamiyat hayotini bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu boisdan jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilab olingan. Negaki, mamlakatning ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Dissertant fikricha, boshqaruv asosini byurokratik madaniyat turi tashkil etishi lozim, biroq uning ortib ketishi rasmiyatchilik munosabatlarini kuchaytirib, ta'lim muassasasidagi ijodkorlik va erkinlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ta'lim muassasasidagi boshqaruv kadrlari zaxirasining

⁹ «Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4391-сон Қарори. 2019 йил 11 июль.

menejerlik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar muassasa xodimlari, shu bilan bir qatorda butun pedagogik jamoa xulq-atvorining boshqaruv vositasini tashkil etadi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatining jahon amaliyotining tahlilidan kelib chiqib, OTM boshqaruvidagi erkinlikning liberal va sentristik modellarga ajratish mumkin.

Liberal model - (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada) oliy o'quv yurtlarining keng ko'lamdagi avtonomiyasi bilan tavsiflanadi. Bunda ta'lim vazirliklari va hokimiyat organlarining roli strategik ustunlik va oliy ta'lim tizimini rivojlantirish parametrlarni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Boshqaruv vakolatlarining asosiy qismi vositachi-tashkilotlar qo'lida to'plangan bo'lib, ular ta'lim dasturlarini litsenziyalashtirish va akkreditatsiyalash, ta'lim sifatini baholashni ta'minlash, moliyaviy resurslarni taqsimlash vazifasini bajarishga javob berishi mumkin.

AQShda institutsional avtonomiya belgilari yetarli darajada aniq namoyon bo'ladi, chunki bu yerda davlatning yetakchilik rolini pasaytiruvchi va Amerika universitetlarini ko'p kanalli moliyalashtirishni ta'minlovchi bozor muhim ahamiyatga ega bo'lib, u davlat tomonidan qo'llab-quvatlanishi bilan birga turli grantlar, loyihalar va shartnomalardan, pulli ta'lim berishdan, xayriya fondlaridan, ilmiy-ta'limiy xizmatlarini sotishdan ham daromad oladi. Vasiylar kengashlari universitet va jamiyat o'rtasida vositachilik rolini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sentristik model doirasida (Fransiya, Germaniya, Rossiya, Ukraina) oliy o'quv yurtlari huquqiy nuqtai nazardan o'quv, ilmiy-tadqiqot, ma'muriy va moliyaviy faoliyatda avtonom hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda universitetning davlat bilan munosabatlari qonunchilik aktlari, davlat boshqaruv organlarining buyruqlari va qo'llanma(instruksiya)lari bilan boshqariladi.

Oliy ta'limga ommaviy talabning o'sishi tendensiyasi aniq ko'rinadigan makrodarajadagi oliy ta'limda boshqaruvning bozor tamoyillariga moslashish jarayonlari, asosan, ma'muriy islohotlar, yangi davlat boshqaruvining joriy etilishi va oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat ulushining kamayishi natijasida sodir bo'ladi. Bozor yondashuvi oliy ta'lim samaradorligini baholashda tizim raqobatbardoshligi, samaradorligi, hisobdorligi, shaffofligi va sifatining muhimligini ta'kidlaydi. Mikrodarajada ushbu tendensiyalar Oliy ta'lim muassasalarining daromad manbalari va moliyaviy oqimlarini faol ravishda diversifikatsiya qilishga, zamonaviy boshqaruv va byudjetlashtirish usullarini joriy etishga va o'z faoliyatini mijozga yo'naltirishga majbur qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qaroriga muvofiq, "OTMlarning mustaqilligi, akademik erkinliklar, resurslarni mustaqil boshqarish, strategik qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos yaratib, davlat aralashuvining roli kamaymoqda. Oliy ta'limdagi institutsional o'zgarishlar universitetlarning erkinlik darajasini kengaytirishga qaratilgan, chunki xaridorlarning turli guruhlariga taqdim etiladigan turli xil ta'lim shakllariga talab

va taklifni tartibga solish jarayonida bozor mexanizmlari ko‘pincha ma‘muriy mexanizmlarga qaraganda samaralidir.

Pandemiya ta‘sirida ta‘lim auditoriyalar, laboratoriya va kutubxonalardan tashqarida ham davom ettirish majburiyatini ham yuzaga chiqardi. Talabalarning masofadan o‘qishiga to‘g‘ri kelayotgan bo‘lsada, bu ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir etmayapti. Aksincha, raqamli texnologiyalar fanlarning mazmuni va ularni taqdim etish shaklini tubdan o‘zgartirmoqda. Mazkur holat nafaqat elektron taqdimotlar yoki videodan foydalanish, balki elektron ma‘lumotlar bazalariga to‘g‘ridan – to‘g‘ri ulanish, yangiliklar, o‘tish forumlari, videotranslyatsiya, stimulyatsiya tizimlari, elektron trenajyorlarni qo‘llash imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu tariqa ta‘limda transformatsiya sodir bo‘lmoqda.

Ta‘limni raqamlashtirishni isloh qilish ularni zamonaviy texnologiyalar — internet tarmog‘iga ulangan kompyuterlar, ta‘lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari, zamonaviy ilmiy izlanish va ishlanmalar natijalari, dunyoning turli tillarida elektron ilmiy kutubxonalar bilan jihozlashni nazarda tutadi. Ta‘limning raqamli iqtisodiyotga asoslangan ravishda rivojlanishi bilan sohada davlatning roli pasayadi. Ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh ta‘lim xizmatlarining yangi yetkazib beruvchilari paydo bo‘lishi uchun sharoit va talablar yaratiladi. Bitiruvchilarning istiqbolli kasb va malakalarini aniqlash uchun ish beruvchilar bilan samarali o‘zaro aloqalarni o‘rnatish universitetlarning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi. Faol va innovatsion OTMlar ta‘lim bozoriga kirib, maxsus kurslarni taklif etishi ham mumkin.

Bugungi kunda dunyodagi universitetlarning ta‘lim va tadqiqot faoliyati eng nufuzli, xalqaro miqyosda tan olingan Times Higher Yedusation World University Rankings (Buyuk Britaniya) va QS World University Rankings (Buyuk Britaniya) kabi tizimlarda baholanadi. Universitetlar reytingida asosan ta‘lim va ilmiy tadqiqot faoliyatidan kelib chiquvchi ko‘rsatkichlarga asoslaniladi, ta‘lim sifati, xalqaro aloqalar, so‘nggi 5 yil natijalari tahlil qilinadi. Oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar natijasida 2019 yilda O‘zbekiston universitetlari — Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti QS World University Rankings for Yeastern Yeurope and Sentral Asia (YeESA) reytingida ilk bor 301-350 o‘rinlarni, 2020 yilda O‘zbekiston Milliy universiteti Times Higher Yedusation World University Rankings reytingida 601 o‘rinni, Toshkent tibbiyot akademiyasi 301400 o‘rinni hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti 201 o‘rinni egalladi.

«Yuksalish» umummilliy harakati raisi, Oliy Majlis deputati Bobur Bekmurodov «Oliy ta‘lim: nomarkazlashtirish, masofaviy ta‘lim, standartlar haqida» sarlavhali postida oliy ta‘lim tizimining yangi rahbariyatiga murojaat qilib, tizimda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan to‘rtta asosiy qadamni sanadi.

U oliy ta‘lim tizimida so‘nggi yillarda erishilgan muhim ijobiy o‘zgarishlarni e‘tirof etgan, jumladan, bitiruvchilarni oliy ta‘limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga yetgani, ta‘limning bakalavriat, magistratura va sirtqi shakllari uchun kvotalar oshirilib, kechki ta‘lim shakli joriy etilganini qayd etib o‘tgan. Shu bilan birgalikda, davlat va jamiyat boshqaruvida, ayniqsa joylarda professional kadrlar tanqisligi, aholi sonining o‘sish sur‘ati, oliy ta‘lim

tizimi infratuzilmasi va salohiyatining joriy holati navbatdagi va fundamental o'zgarishlarni taqozo etayotgani ta'kidlangan.

birinchidan, oliy ta'lim tizimini izchil nomarkazlashtirish, davlat nazorati va ishtirokini keskin qisqartirish, ma'muriy mustaqillik bilan cheklanmasdan, akademik mustaqillik berish uchun jiddiy qadamlarni qo'yish kerak. Vazirlikning ta'lim sifatini va davlat shartlari ijrosini nazorat qilish funksiyasini saqlab qolgan holda, ma'muriy boshqaruv funksiyalaridan voz kechish kabi irodali qarorlar qabul qilinishi kerak. Vazirlik ixcham va yuqori professional tarkibga ega bo'lishi va muvofiqlashtiruvchi rolni bajarishga o'tishi lozim.

ikkinchidan, masofaviy ta'limni to'liq joriy qilish vaqti ham keldi. Buning uchun yetarli infrastrukturallarni yaratish, qonunchilik va proseduralarda masofaviy ta'limga keng yo'l ochish, o'quv yurtlari undan keng foydalanishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish zarur. Bu bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan to'liq qamroviga erishish masalasini keyingi 10-15 yilda emas, 3-5 yil ichida hal etish, qolaversa, oliy o'quv yurtlarining to'lov-shartnoma miqdorini optimallashtirish imkonini ham beradi.

uchinchidan, oliy ta'lim xizmatlari bozorini yaratish maqsadida barcha ishtirokchilar uchun tushunarli, teng va adolatli shartlarni joriy qilish zarur. Davlat tomonidan qo'yiladigan shartlarini bajara oladigan, qonunchilikka amal qilishga tayyor barcha ishtirokchilarga sohaga investitsiya qilish imkoniyati yaratilishi kerak.

to'rtinchidan, ta'lim standartlarini qaytadan ko'rib chiqish, ta'lim sifatini nazorat qilishning zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy qilish lozim. Kerak bo'lsa, buning uchun dunyoning nufuzli universitetlaridan boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha maslahatchilar, menejrlarni yollash, eng asosiysi hukumat tomonidan zarur mablag'lar ajratilishi zarur.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bozor iqtisodiyoti, ta'lim sohasidagi raqobat muhiti va jamoatchilik tomonidan tan olinishi o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirish, universitetlarning mas'uliyati va o'zini o'zi rivojlantirish uchun yetarli rag'batdir. Bunday sharoitda akademik erkinlik, universitetning ijroiya organining keraksiz aralashuvidan mustaqilligi uning muvaffaqiyatli ishlashi va raqobatbardoshligining kafolatidir. Faqatgina oliy ta'limning haqiqiy o'zini o'zi boshqarish va akademik erkinlik kafolatlari sharoitida butun yurtimizda oliy ta'lim samaradorligini ta'minlash mumkin. Uning samaradorligi fikr, so'z erkinligi, yaratish, g'oyalar, yangi konsepsiyalar va nazariyalarni yaratish qobiliyatiga mutanosibdir.

Dissertatsiyaning «**Ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish vazifalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida OTMlar boshqaruvida akademik erkinlik tamoyillarini joriy etish asoslari, shakllari va bosqichlari tadqiq etilgan.

Global ta'lim muhitida ilg'or xalqaro oliy ta'lim muassasalari boshqaruvidagi akademik mustaqillik jahondagi eng samarali faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tizimlarining ajralmas xususiyatlariga aylandi. Biroq, akademik mustaqillikning umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas va uning to'liq mustaqilligi har bir

muayyan davlatda shakllangan hukumatning mavjud tizimi, oliygoh an'analari, shuningdek, madaniyat, fan va ta'limning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda akademik mustaqillik deganda, birinchi navbatda, oliy ta'lim muassasalarining faoliyat erkinligini anglatishini unutmazlik kerak. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik tamoyillarini joriy etishning samrali tomonlarini ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Bugungi kunda akademik erkinlik salohiyatli OTM faoliyatining zaruriy shartidir. Akademik erkinlikning yuqori darajasi xalqaro reyting agentliklarining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Universitetning yuqori darajadagi akademik erkinlikka sodiqligi uning yuqori darajadagi izlanishlarini, g'oyalari va fikrlarini ifoda etishini rag'batlantiradi.

Akademik erkinlikni qo'lga kiritish zamonaviy oliy ta'limning asosiy qadriyatidir. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida oliy ta'lim va uning o'zgarishiga asosiy omillar ta'sir qiladi: tijoratlashtirish, ommaviylik va mavjudlik. Shularni inobatga olingan holda, Humboldtning akademik erkinligi to'g'risidagi asosiy tushunchaga yana bir bor qaytish kerak, bu yerda akademik erkinligi ostida professorning hech qanday cheklovlarisiz o'qitish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, nashr etish va o'z fikrlarini bildirish huquqiga ega. Akademik erkinlik professor sifatida ishlash huquqini shartnomalar va bitimlar tizimi orqali kafolatlaydi. Shu bilan birga, muhim omilni hisobga olish kerak - akademik erkinlik uchun universitet qanday boshqarilayotgani muhim. Akademik erkinlikning mohiyati professorni universitetni boshqarishda qatnashish imtiyozini emas, balki menejment masalalari bo'yicha o'z fikrini bayon etish qobiliyatidir. Akademik erkinlikni professor-o'qituvchilarning o'qitish, izlanish va fikr bildirish erkinligi deb qarash kerak. OTM professor-o'qituvchilari hosildorlik va samaradorlikni berishga majburdirlar, uning ishi baholanishi va reytingga ega bo'lishi kerak, ammo agar salbiy natijalar bo'lsa, ishdan bo'shatilgunga qadar ma'muriy choralarni qo'llash kerak, albatta, rasmiy tekshiruvdan so'ng akademik erkinlikni buzmaydi.

Jahon miqyosida innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi oliy ta'lim muassasasini boshqarishda ham innovatsion yondashuv tamoyillarining ustuvorligini ta'minlashni taqozo etmoqda. Binobarin, innovatsion yondashuv OTMni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlarga moslashgan holda rivojlanishi, ta'lim sifatining oshishi, malakali, kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashga erishishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Kanada, Singapur, Turkiya, Rossiya davlatlarida OTMni innovatsion boshqarishning yangi tendensiyalari – venchur (venture) moliyalashtirish, benchmarking (benschmarking), franchayzing (franshising), autsorsing (jumladan, IT-autsorsing; out + source), kraudsorsing (srowd+ soursin), brending (branding), filantropik faoliyat (philanthropis astivity) kabilar joriy etilmoqda.

2000 yil 29-30 mart kunlari Ispaniyaning Salamanka shahrida bo'lib o'tgan oliy ta'lim muassasalari rektorlarning s'ezdida akademik hamjamiyatning akademik erkinlik tamoyillariga sodiqligi yana bir marta ta'kidlandi, bu OTMlari:

o‘z strategiyalarini o‘zlari belgilash; o‘quv va tadqiqot ishlarida eng muhimlarini tanlash; ta‘lim dasturlarini shakllantirish; o‘qituvchilarni tanlash mezonlarini o‘rnatish; resurslarni taqsimlash huquqiga ega ekanini anglatadi. Bu huquqni amalga oshirish uchun universitetlarga quyidagilar kerak:

- ma‘muriy erkinlik;
- o‘quv ishlarida erkinlik va uni o‘z-o‘zicha tartibga solish;
- yetarli darajada moliyalashtirishdagi erkinlik. Shunday qilib, xalqaro standartlarda akademik mustaqillik deyilganda **“mas‘uliyatli erkinlik”** tushuniladi. Oliy ta‘lim muassasalari o‘z strategiyalarini mustaqil shakllantirish, ta‘lim berish va ilmiy tadqiqotlar olib borishda ustuvor yo‘nalishlarni tanlash, o‘z resurslarini sarflash, o‘z dasturlarini ixtisoslashtirish, professorlar-o‘qituvchilar va ta‘lim oluvchilarni qabul qilish mezonlarini o‘rnatish huquqiga ega bo‘lishlari kerak.

2007 yil 13-aprelida qabul qilingan «Yevropa universitetlari 2010 yildan keyin: maqsadlar birligidagi xilma-xillik» nomli Lissabon deklaratsiyasiga ko‘ra akademik mustaqillik - universitetning tashkiliy, moliyaviy, kadrlar tanlash, shuningdek o‘quv rejalar yaratish, o‘qitish va ilmiy tadqiqotlarning nazariy istiqboli va metodlarini tanlashga doir akademik erkinlikni o‘z ichiga oladi. Gresiyaning Egey universiteti rektori S.Katsikas akademik mustaqillikning institutsional o‘lchovining o‘xshash tavsifini beradi, u moliyaviy mustaqillikni — byudjetdan erkin foydalanishni jamiyatni universitetlarning samarali faoliyatidan manfaatdorligini; boshqaruv mustaqillikni — ularning faoliyatiga aloqador asosiy qarorlarni mustaqil qabul qilishni; akademik mustaqillikning o‘z kadrlarni tanlashda akademik tartiblarning ustunligi va tashqi agentlarning tadqiqotlarga va o‘qitishga aralashuvini cheklashni qo‘shadi¹⁰.

Akademik mustaqillikni OTMlar boshqaruvi samaradorligini ta‘minlovchi muhim omil sifatida tadqiq qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Akademik mustaqillikni tadqiq qilish oliygohlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining tarixiy ildizlariga murojaat qilishni taqazo qiladi. Ilk oliygohlar bilimlarni berish bilan band bo‘lgan professionallarning uyushmalari sifatida paydo bo‘lgan. Ular shu xildagi uyushmalarga beriluvchi imtiyozlarga ega bo‘ldilar. Boshqa imtiyozlar qatorida huquqiy o‘ziga xoslik imtiyozi ham bor edi: professional korporatsiya o‘z-o‘zini boshqaruvchi tashkilot bo‘lib, o‘z a‘zolarini sud qilish huquqiga ega edi.

Oliy ta‘lim muassasasiga nisbatan ishlatilayotgan erkinlik va mustaqillik tamoyillariga huquq va majburiyatlar majmuasi, jamiyat oldida to‘liq javobgarlik va hisobdorlik(hisob berishga burchlilik) nazarda tutiladi. Oliy o‘quv yurtlariga mustaqillik ularning ichki ishlariga berilishi kerak, biroq bunday mustaqillik hukumat, parlament, ta‘lim oluvchilar va umuman jamiyat oldidagi majburiyat va ularga hisobdorlikka asoslanishi ham kerak.

Osiyo mamlakatlarida oliy ta‘lim muassasalarida akademik mustaqillikning ikki turi – substansial va prosessual mustaqillik namoyon bo‘ladi. Institutsional mustaqillikning ikkala turi ham kadrlar masalasiga oid, tashkiliy, akademik va

¹⁰ Katsikas S.K.The university in the third millennium: Which reforms are needed? Organisation for Economic Co-operation and Development. URL:<http://www.oecd.org/dataoecd/26/12/37051299.pdf>

moliyaviy mustaqillikning elementlarini birlashtiradi. Shunga qaramay, moliyaviy va prosessual mustaqillik ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijasida prosessual mustaqillik atamasi moliyaviy mustaqillik bilan aniqlanadi, degan xulosaga kelish mumkin, bir vaqtning o'zida mustaqillikning akademik va kadrlar kabi turlari substansiyaga tenglashtiriladi. Shu bois substansial va prosessual mustaqillik modeli asosida Osiyo mamlakatlaridagi OTMlarning boshqaruv tamoyillari va o'ziga xosliklarini tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Osiyo mamlakatlarida ta'lim tashkilotlarining mustaqilliksini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar, odatda, mustaqillikning ikki turi – substansial va prosessual mustaqillik namoyon bo'ladi. Institutsional mustaqillikning ikkala turi ham kadrlar masalasiga oid, tashkiliy, akademik va moliyaviy mustaqillikning elementlarini birlashtiradi. Shunga qaramay, moliyaviy va prosessual mustaqillik ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijasida prosessual mustaqillik atamasi moliyaviy mustaqillik bilan aniqlanadi, degan xulosaga kelish mumkin, bir vaqtning o'zida mustaqillikning akademik va kadrlar kabi turlari substansiyaga tenglashtiriladi.

Substantiv mustaqillik	Prosedur mustaqillik
Akademik va kadrlar mustaqilliksi	Moliyaviy mustaqillik
Ta'lim dasturlari tuzilishi	Byudjet moliyalashtirishi
Tadqiqotlar o'tkazish siyosati	Moliyaviy menedjment
O'qishga qabul qilish qoidalari	Noakademik xodimlarni tayinlash
Akademik xodimlarni tayinlash	Tovar mollari va xizmatlarni sotib olish
Akademik darajalarni berish	Kontraktlar tuzish

1-rasm. Osiyo mamlakatlari oliy ta'lim muassasalri boshqaruvida institutsional mustaqillikning tuzilishi

Xulosa qilganda, rivojlangan Osiyo mamlakatlarida shakllangan institutsional mustaqilliy tamoyillarini tadqiq etish, ahamiyatli, samarador tomonlarini o'rganish, milliy ta'lim tizimiga tadbiq etish, mustaqillikning chegaralarini belgilash bugungi ta'limiy islohotlardagi eng muhim ehtiyojlardan bo'lib qolmoqda.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim muassasalari faoliyatinitashkil etish va boshqarish jarayonlariga akademik mustaqillikning klassik va liberal modellarini joriy etish istiqbollari**» deb nomlangan uchinchi bobda oliy ta'lim tizimida boshqaruvni isloh qilish, unga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish mexanizmlari sifatida klassik va liberal modellari tahlil qilingan.

Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga amerikancha liberal modeli keng joriy etilmoqda. Bu modelning keng ko'lamdagi mustaqillikni anglatishi nuqtai nazaridan aksar rivojlangan mamlakatlar tomonidan ma'qullanmoqda. Mazkur model AQSh, Buyuk Britaniya va Kanada mamlakatlarida shakllangan va takomillashtirilgan va uni mazmuni va samaradorligini bilish uchun ushbu mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari boshqaruvi imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Amerika va Kanada mamlakatlari oliy ta'lim muassasalari yagona markazlashgan boshqaruv tizimiga ega emas. OTMlar boshqaruvida erkinlik va moliyaviy mustaqillik

an'analari aniq namoyon bo'lsada, bir biridan farqli va o'ziga hos jihatlari mavjudligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarining aksariyat oliy ta'lim muassasalarida akademik masalalarga nisbatan keng mustaqillikga yaratilgan.

Bugungi kunda barcha shtatlarda oliy ta'lim bo'yicha muvofiqlashtiruvchi (soordinating board) Kengash yoki Boshqaruv kengashi (governing board) tashkil etilgan bo'lib, u davlat oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun mas'ul hisoblanadi¹¹. Boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi Kengashlarning a'zolari asosan shtat gubernatori tomonidan tayinlanadi. Ba'zida xodimlarning bir qismi gubernator tomonidan tayinlanadigan, boshqa qismi esa mahalliy qonun chiqaruvchi vakillar va bitiruvchilar tomonidan tayinlanadigan holatlar ham mavjud. Boshqaruv kengashlari shtat fuqarolaridan to'g'ridan-to'g'ri saylovlar yo'li bilan to'ldiriladigan holatlar mavjud. Ham boshqaruv, ham muvofiqlashtiruvchi Kengashlarning vazifalari doirasi turlicha bo'lib, davlat hokimiyati organlarining siyosatiga bog'liq. Umuman olganda, boshqaruv kengashlari boshqaruv funksiyalariga ko'proq ega va mohiyatan xususiy universitetlarning vasiylik kengashlaridan namuna olingan. Biroq, boshqaruv Kengashi bir necha davlat OTMlarini nazorat qiladi va bunday kengashlar bitta shtatda ikki yoki uchta bo'lishi mumkin. Shunday qilib, boshqaruv kengashiga oliy ta'lim tizimidagi korporativ boshqaruvning asosiy tuzilmasi sifatida qarash mumkin, bu uning vakolat va vazifalari doirasiga ham ta'sir qiladi. Boshqaruv kengashi mansabdorlarni tayinlash, byudjetni tasdiqlash, rejalashtirish, institutsional tartiblar va umuman korporativ boshqaruv sohalarida katta vakolatga ega.

Muvofiqlashtiruvchi Kengash esa davlatdagi oliy ta'lim sohasida nazorat funksiyalarini bajaruvchi va oliy ta'lim davlat qo'mitasini ifodalovchi yagona institut hisoblanadi. Bunday organning asosiy vazifasi davlat OTM tizimining shtatning ijtimoiy-iqtisodiy istiqboldagi vazifalari bilan izchilligini ta'minlashdan iborat. Shtat umumiy Muvofiqlashtiruvchi Kengash va bir yoki bir necha boshqaruv Kengashlariga ega bo'lgan holatlar ham mavjud. Muvofiqlashtiruvchi Kengash OTMlarga ko'proq institutsional mustaqillik beradi. Biroq, byudjetni tasdiqlash, rejalashtirish va o'quv dasturlarini ishlab chiqish kabi masalalar bo'yicha qarorlar uning roziligini talab qiladi. Ko'rib chiqilgan Boshqaruv va Muvofiqlashtiruvchi Kengashlarning funksiyalari orasidagi farqlar quyida keltirilgan. Bu jadvalda Kengashlarning eng ko'p uchraydigan vazifalari ko'rsatilgan.

Amerika oliy ta'lim muassasalari boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyati Kengash va Prezident o'rtasidagi vazifalarini aniq bo'linishi hisoblanadi, unda Kengash strategik boshqaruvni amalga oshirsa, Prezident – operatsion boshqaruvni amalga oshiradi. Prezident oliy ta'lim muassasasi ishini Kengash tomonidan belgilangan nizom va qoidalarga muvofiq boshqaradi va unga javobgar bo'ladi. Samarasiz boshqaruv natijalariga ko'ra, OTM Prezidenti Kengash qarori bilan lavozimidan olib tashlanishi mumkin.

¹¹ Lingenfelter P. Higher education governance in and among the United States //Seminar on «Governing bodies of higher education institutions. RolesandReson». – Paris: OECD, 2006

Oliy o‘quv yurtlari uchun iqtisodiy rag‘batlantirish tizimi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra ular samaradorlik darajasi va belgilangan standartlarni amalga oshirishga qarab moliyalashtiriladi. Qonun, shuningdek, ta‘lim to‘lov shartnoma miqdorini OTMning Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlanishini nazarda tutadi. OTMning vakolatli organ bilan anglashuv memorandumini yoki “Boshqaruv shartnomasi”ni imzolash bilan katta darajadagi mustaqillik olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

AQSh oliy ta‘lim muassasalari ma‘muriy mustaqillik doirasida cheklangan vakolatlarga ega, chunki regentlar Kengashi Prezident va boshqa oliy ma‘muriy xodimlarni tayinlaydi va ishdan bo‘shatadi. Regentlar Kengashi, shuningdek, oliygohning rivojlanish strategiyasini belgilaydi va u haqidagi qoidalarga hamda boshqa normativ hujjatlarga kiritilgan barcha tuzatish va o‘zgarishlarni tasdiqlaydi. Rasman Kengash keng vakolatlarga ega, ammo ularning ba‘zilarini Prezident va katta ma‘muriy xodimlarga vakil qilib amalga oshiradi. OTM boshqaruvi korporativ amaliyotning va boshqaruvni kollegial shakli kombinatsiyasi hisoblanadi. Korporativ element - boshqaruv organi sifatida regentlar Kengashi va OTM Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlarning boshqaruvchisi va ijrochisi sifatida mavjudligi hisoblanadi.

AQShda OTMlar ixtiyoriy ravishda akkreditatsiyadan o‘tadi. OTMlarni akkreditatsiya qilish nodavlat tashkilot – Oliy ta‘lim akkreditatsiyasi bo‘yicha Kengash(Souncil for Higher Yedusation Assreditation) tomonidan amalga oshiriladi¹². Shuningdek, OTMlarning ayrim akademik dasturlari ixtisoslashgan va professional birlashmalar tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkaziladi. Misol uchun, tibbiyot fakultetlari Amerika tibbiyot kollejlari Assosiyatsiyasi tomonidan, huquqshunoslik fakultetlari esa – Amerika advokatlar Assosiyatsiyasi tomonidan akkreditatsiya qilinadi. Shunday qilib, Arizona shtati OTMlarining ilmiy faoliyati sohasida Kengashning roli sezilarli darajada bo‘lib qolmoqda. Masalan, Kengash talabalarni bakalavriat yo‘nalishlariga qabul qilish bo‘yicha minimal talablarni belgilaydi. Biroq, bunday talabalarni o‘qishga qabul qilish bo‘yicha yakuniy qaror OTMlar tomonidan mustaqil qabul qilinadi. Arizona OTMlari o‘quv dasturlari mazmunini va o‘qitish tilini aniqlashda mustaqillikga ega. Shunga qaramay, undagi OTMlar ta‘lim dasturlari sohasida siyosatni shakllantirish uchun Kengashning ijobiy bahosini va roziligini olishlari kerak. Umuman olganda, akademik faoliyat sohasida Arizonaning davlat OTMlari tizimi yuqori darajada avtonomligi bilan ajralib turadi. Biroq, institutsional jihatdan universitetlar to‘liq avtonom emas va Kengashga, jumladan, ularning ilmiy faoliyati uchun katta hisobdordir.

Kanada oliy ta‘lim muassasalarining boshqaruv mustaqilliksi ham o‘ziga xos va bugungi kunda eng samarador boshqaruv shakllaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Mazkur mamlakat markazlashmagan ta‘lim tizimiga ega va OTMlarni boshqarish nuqtai nazaridan, Kanadaning o‘nta provinsiyasi bir-biridan tubdan farq qiladi. Biroq, barcha Kanada oliy ta‘lim muassasalari uchun umumiy bo‘lgan bir qator umumiy xususiyatlar mavjud. Kanada oliy ta‘lim muassasalarining asosiy umumiy xususiyati korporativ boshqaruv modelini qabul qilganidir.

¹² Higher Learning Commission. North Central Association of Colleges and Schools.

Kanadada federal darajada ta'lim sohasi uchun mas'ul organ va bu sohada masalalarni tartibga soluvchi Qonunchilik mavjud emas. OTMLar faoliyati va butun oliy ta'lim tizimi Kanada provinsiyalari yurisdiksiyasi tomonidan boshqariladi. Professor-o'qituvchilar tarkibidan va OTM xodimlari orasidan saylangan Vasiylik Kengashi a'zolari uch yil muddatga yoki voris saylangunga qadar o'z lavozimlarini egallaydilar. Provinsiyaning Gubernatori tomonidan tayinlangan kengashning sakkiz a'zosi uch yilgacha yoki voris saylangunga qadar lavozimni egallaydi. Shu bilan birga, gubernator har qanday tayinlangan a'zoni Vasiylar Kengashidan chiqarish huquqiga ega. Talabalar orasidan saylangan Kengashning ikki a'zosi bir yil davomida yoki ularning vorislari saylanguniga qadar o'z lavozimlarini egallaydilar. Rektor va Prezident Vasiylik Kengashining a'zolari bo'lib, ular o'zlarining tegishli lavozimlarini egallab turgunlaricha Kengash a'zolari bo'ladilar. Kengashning barcha saylangan a'zolari qayta saylanishi mumkin, ammo Kengash a'zosi lavozimini ketma-ket olti yildan ortiq egallab tura olmaydi.

Kanada OTMLarida Rektorni tayinlash tartibi va vakolatlari ham mamlakat qonunchiligi bilan mustahkamlangan. Rektor OTMLarda ilmiy darajalarni berish uchun mas'ul bo'lgan asosiy mansabdor shaxs hisoblanadi. Rektor Vasiylik Kengashi tomonidan OTMning bitiruvchilar Assosiatitsiyasi tavsiyasiga binoan va Senat bilan maslahatlashgandan so'ng tayinlanadi¹³. Rektor o'z lavozimini uch yil davomida yoki voris tayinlangunga qadar egallaydi. Amaldagi Rektor ikkinchi muddatga qayta saylanishi mumkin, ammo u bu lavozimni ketma-ket olti yildan ortiq egallab tura olmaydi.

Kanada oliy ta'lim muassasalarida Vasiylik Kengashlariga keng vakolatlar berilgan. Aynan Vasiylik Kengashlari OTM prezidenti, barcha fakultet dekanlari, kutubxonachini, registratorni, g'aznachi, professorlar, dosentlar, katta o'qituvchilar, lektorlar, instruktorlarni va professor-o'qituvchilar tarkibining boshqa a'zolarini tayinlaydi va ularning vazifalarini aniqlaydi. Shuningdek, Kengash oliygohda yangi fakultetlar, kafedralarni ochish va mavjudlarini yopish, universitet o'quv dasturini o'zgartirish masalalari bo'yicha ham mas'uldir.

Kanada OTMLarining akademik mustaqilliksi ham o'ziga xos hususiyatlarga ega va u asosan talabalarni qabul qilish mezonlarini belgilash, o'quv dasturlarini rejalashtirish, ta'lim jarayonining sifatini nazorat qilish mexanizmlarini va boshqa akademik jihatlarni belgilash qobiliyati bilan belgilanadi. Mamlakatda ta'lim sohasi uchun javobgarlik asosan provinsiya hukumatlariga yuklatiladi va shunga muvofiq provinsiya qonunchiligi tasarrufida bo'ladi¹⁴. Provinsiyalar ta'lim tizimini tashkil etishda bir-biridan ancha farq qiladi.

Kanadada OTMLar tanlash mezonlarini va o'qishga kiruvchi talabalar sonini belgilashda katta mustaqillikka ega. Bu vazifalar Oliy o'quv yurtlari Vasiylik Kengashlariga yuklatilgan. Masalan, Britaniya Kolumbiyasi universitetlarida

¹³ Jones G. A., Shanahan Th., Goyan P. Traditional Governance Structures –Current Policy Pressures: The Academic Senate and Canadian Universities, Библиотека Йоркского Университета, 2012. – с.2 [Электронный ресурс] <http://pi.library.yorku.ca/dspace/bitstream/handle/10315/2811/Traditional%20Governance%20Structures%20-%20Current%20Policy%20Pressures.pdf?sequence=1> (11 апреля 2012). Статья 5

¹⁴ Fisher D., Rubenson K. Canadian Federal Policy and Postsecondary Education. The University of British Columbia, с.1 // http://chet.educ.ubc.ca/pdf_files/Canadian_Federal_Policy.pdf (11 апреля 2012)

Vasiylik Kengashlari universitet resurslarini hisobga olgan holda universitetda yoki alohida fakultetda o'qishga qabul qilinishi mumkin bo'lgan talabalar sonini belgilaydi¹⁵. Ta'kidlash kerakki, Vasiylik Kengashining kiruvchi talabalar sonining ko'payishi yoki kamayishi bilan bog'liq har qanday qarori universitet Senatining roziligi bilan amalga oshiriladi. Talabalikka saralash mezonlarini aniqlash OTM darajasida amalga oshiriladi. Senat talabgorlarni tanlash sifati va boshqa mezonlarga tegishli barcha masalalarni hal etishga mas'uldir¹⁶.

Bugungi kunda Yevropa davlatlarida OTMlarni boshqarishning an'anaviy unitar tizimidan emas, balki ikki bosqichli tizimidan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, Yevropa OTMlarining mustaqilliksi yuqori lavozimli xodimlarni tasdiqlashdan tortib, tayinlashgacha o'zgarib turadi. Agar OTMlar turli manbalardan moliyalashtirilsa, xodimlarni yollashda ko'proq erkinlikka ega bo'ladi. OTMlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan mamlakatlarda boshqaruv mustaqilligining quyi darajasi kuzatiladi.

Akademik mustaqillik institutsional mustaqillikning ajralmas qismi bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarining nazorat organi ko'rsatmalariga amal qilish yoki ruxsat olish zaruriyatisiz o'z faoliyatini amalga oshirish layoqati bilan belgilanadi¹⁷. Shunday qilib, o'z faoliyatiga doir qarorlar qabul qilishda to'la kuchga ega bo'lgan ta'lim muassasalarini avtonom deb hisoblash mumkin. Bunday holda davlat organlari tomonidan ta'lim muassasalariga qo'yilgan har qanday cheklashlar, qoidalar yoki talablar mustaqillikga tamoyillariga zid hisoblanadi.

Akademik mustaqillik OTMlarining talabalar kontingentiga, akademik o'quv dasturlariga, shuningdek monitoring qilish va ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash mexanizmlariga oid qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish layoqati bilan belgilanadi. Agar o'qish joylari soni bo'yicha qaror qabul qilish layoqati OTMning tashkiliy tuzilishi va moliyaviy imkoniyatlari uchun muhim bo'lsa, ularga qabul qilish qoidalarini aniqlashda erkinlik o'quv dasturlarining sifati va talabalar manfaatlariga mosligini ta'minlaydi¹⁸. OTM professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv dasturlarining metodologik va asosli mazmunini aniqlay olish ilmiy erkinlikning asosi hisoblanadi. Bunday yondashuv OTM ilmiy-ma'rifiy faoliyatini hech qanday tashqi aralashuvlarsiz amalga oshirish imkonini beradi. Mutaxassisliklar bo'yicha o'quv dasturlarini yaratish imkoniyati OTMlarga talabalar va mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq o'quv dasturlarini yangilash va takomillashtirish imkonini beradi. Bu esa, butun dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalarida akademik mustaqillik darajasini baholash imkonini beradi.

Yevropadagi oliy ta'lim muassasalarining tashkiliy mustaqilligi va institutsional imkoniyatlari darajasini baholashda muassasaning boshqaruv organlari tuzilmasini ham ko'rib chiqish zarur. Yevropa OTMlari boshqaruv organlarining tuzilishi turlicha bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, oliy o'quv

¹⁵ University Act, British Columbia Laws, Статья 19 [Электронный ресурс] http://www.bclaws.ca/EPLibraries/bclaws_new/document/ID/freeside/00_96468_01 (11 апреля 2012)

¹⁶ University and University Colleges Act 1971, Статья 37. First Schedule

¹⁷ Ordorika, I. The Limits of University Autonomy: Power and Politics at the Universidad Nacional Autónoma de México//Higher Education, 2003 - 46 (3), -pp. 361-388

¹⁸ Всеобщая Хартия Университетов. Забайкальский государственный университет http://www.zabgu.ru/info/bologna/magna_charta.

yurtlarining asosiy boshqaruv organlari qaror qabul qiluvchi organ (decision making body) va maslahat organlaridir (advisory bodies) dan iborat. Aksar mamlakatlarda OTMning qaror qabul qilish organlari faoliyatining asosiy normalari qonun bilan tartibga solinadi, ammo oliygohlar odatda ularni amalga oshirishda erkinlikka ega bo'ladi.

Shartli ravishda, Yevropa oliygohlarining boshqaruv organlarini ikkita asosiy tuzilmasini ajratib ko'rsatish mumkin: ikki bosqichli va unitar (qo'shma). Aksariyat mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalari Kengash (kollegial boshqaruv organi) va Senatdan iborat ikki bosqichli tuzilishga ega. Tuzilmalarning nomlari o'zgarishi mumkin, ammo odatda ko'p sonli a'zoldan iborat bo'lgan Senat o'zgarishsiz qoladi.

Ikki bosqichli tuzilma Yevropaning ko'plab mamlakatlarida faoliyat ko'rsatadi va odatda, organlardan birining faoliyati ikkinchi darajali va tavsiyaviy xarakteriga ega bo'ladi. Ikki bosqichli tuzilmada Kengash odatda strategik reja, rektor va prorektorlarni tayinlash, byudjetni taqsimlash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun mas'uldir.

Senat o'quv dasturlarini ishlab chiqish, diplomlarni topshirish va xodimlarning xizmat darajasini ko'tarish kabi ilmiy masalalar uchun mas'uldir. Senat a'zolari fakultet vakillari, ma'muriy xodimlar va talabalar bo'lsa, Kengash a'zolarining tarkibi esa ichki (fakultet, ma'muriy xodimlar va b.) va tashqi a'zolar (hamkorlikdagi kompaniya rahbarlari, vazirlik vakillari va b.) dan iborat bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarining ijro etuvchi boshqaruv vakillarini mustaqil tayinlash huquqi boshqaruv mustaqillikining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Oliyogohning ijroiya boshqaruviga rektor, prorektorlar, bo'lim boshlig'i va fakultet dekanlari kiradi. Ayrim mamlakatlarda ijro etuvchi boshqaruv a'zolarining tarkibi va ularga qo'yiladigan talablar qonunda belgilangan bo'ladi.

Yevropa mamlakatlarida rektorning boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorligi borasida ikkita model mavjud. Birinchi modelda rektor ovoz berish huquqiga ega a'zo yoki rais sifatida boshqaruv organining a'zosi hisoblanadi. Ikkinchi modelda rektor tashqi a'zo, lekin Kengash yoki Senat oldida hisob beradi. Birinchi model ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladi. Ikkinchi model Avstriya, Chexiya, Daniya, Litva, Lyuksemburg, Portugaliya va Slovakiyada qo'llaniladi. Bu mamlakatlarda rektor boshqaruv organiga tavsiyalar va hisobotlar beradi, lekin ovoz berish huquqiga ega emas. Serbiyada va Shveysariyada rektor akademik Senatning raisi, ammo ovoz berish huquqiga ega emas.

Yevropa oliy ta'lim tizimida OTM xodimlarini lavozimdan chetlatish tartibi odatda vakolatli organ tomonidan belgilanadi. Misol uchun, Kiprda OTMi katta o'qituvchilarini o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shatish huquqiga ega emas. Oliy ta'lim muassasasi xodimlarini egallab turgan lavozimini ko'tarish ham qonun bilan tartibga solinadi. Misol uchun, Fransiyada xodimlarni xizmatda ko'tarilishi faqat kvotalar bo'yicha amalga oshiriladi. Italiyada mamlakat miqyosida tanlov o'tkaziladi. Ushbu guruh mamlakatlarida oliygohlar yangi xodimlarni yollashda nisbatan katta erkinlikka ega. Italiya va Kipr OTMlari barcha xodimlarni mustaqil ravishda tayinlash huquqiga ega. Shunga qaramay, Italiyada xodimlarni tayinlash

qonun bilan tartibga solinadi. Ispaniyada yangi kadrlar milliy akkreditatsiya agentligi tomonidan akkreditatsiya qilinishi kerak. Fransiyada oliygohlar faqat vazirlik tomonidan tayinlangan komissiya tomonidan tuzilgan ro'yxat bo'yicha yangi xodimlarni yollashlari mumkin. Fransiya va Turkiyada professor-o'qituvchilarning umumiy soni vakolatli organ tomonidan belgilanadi. Shunday qilib, ushbu guruh mamlakatlaridagi OTMlarning mustaqilliksi sezilarli darajada cheklangan.

Yevropa mamlakatlarida ta'lim sohasidagi qonunchilik asoslari akademik erkinlik qoidalarini kafolatlaydi. Ko'plab mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarida OTMlarning akademik mustaqilliksi belgilab qo'yilgan. Oliy ta'lim sohasidagi turli normativ hujjatlar qoidalari tahlil qiladigan bo'lsak, OTMlarda akademik erkinlikni ta'minlashning ikkita asosiy yondashuvini ajratib ko'rsatish mumkin: 1) kafolat huquqi, unda individual va institutsional jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin; 2) majburiyatlar qonuni¹⁹. OTMlarning akademik erkinligini o'z konstitutsiyalari darajasida kafolatlaydigan ko'plab mamlakatlar bu huquqni abstrakt tartibda shakllantirib, ko'pincha so'z, vijdon, majlis va axborot erkinligi bilan bir xil darajaga qo'yishgan. Aksariyat hollarda, o'qish huquqi, o'qitish huquqi, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish huquqi, tadqiqot natijalarini e'lon qilish va tarqatish huquqi (cheklovlarisiz) va intellektual mulk huquqlariga akademik erkinlik elementlari sifatida qaralishi mumkin.

Yevropa OTMlarida akademik erkinlik bo'yicha kafolatlar yoki davlat majburiyatlarini taqdim qilish keng tarqalgan. Shunday bo'lsa-da, akademik mustaqillik tushunchasi, so'z erkinligi kabi, hali mutlaq hisoblanmaydi, va shuning uchun davlat organlari javobgarlik tamoyillariga amal qilish uchun oliy o'quv yurtlari mustaqilliksi asoslarini aniqlash, samaradorligi va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish doirasini belgilaydi²⁰. Misol uchun, Gresiya Konstitutsiyasida akademik erkinlik va ta'lim olish erkinligi Konstitutsiya normalariga rioya qilish majburiyatini bekor qilmaydi.

Yevropa OTMlarining akademik mustaqilliksi asosida qabul ko'rsatkichlari, qoidalari va boshqa normalarni ishlab chiqiladi. Akademik mustaqillikning mezonlaridan biri universitetlarning qabul qilish qoidalarini va qabul kvotasini mustaqil ravishda belgilashga qodirligidir. Yevropa universitetlari Assosiasiyasining ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, OTMlarga qabul qilish qoidalari uch yo'l bilan belgilanadi: OTM tomonidan mustaqil ravishda, OTM va vakolatli organni bilan birgalikda yoki faqat oliy ta'lim sohasidagi vakolatli organ tomonidan belgilanadi.

Xulosa qilganda, oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga akademik va moliyaviy mustaqillik tamoyillarini joriy etishda Yevropaning klassik modeli samaradorligi tahlillardan ma'lum bo'ldi. Biroq bu jarayonni boshlashdan avval oliy

¹⁹ Vrieling J., Lemmens P., Parmentiera S. Academic Freedom as a Fundamental Right//Procedia Social and Behavioral Sciences, 2011 – 13 – pp. 117–141

²⁰ Reding V. Two decades of reform in higher education in Europe: 1980 onwards – Eurydice: Brussels, 2000 [Электронный ресурс] http://www.eric.ed.gov/ERICWebPortal/search/detailmini.jsp?_nfpb=true&_E_RICEExtSearch_SearchValue_0=ED444416&ERICExtSearch_SearchType_0=no&accno=ED444416

ta'limni moliyalashda mustaqillikni joriy etish, davlatni OTMLar faoliyatiga aralashuvini cheklash va bu orqali raqobat muhitini yaratish kerakligi kelib chiqadi. Chunki akademik mustaqillik va molyaiviy mustaqillik OTMLar faoliyatida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. OTMLar faoliyatiga xususiy sektorni jalb etish, tashqi investitsiyalarni yo'naltirish uchun ham ular bu jarayonga tayyor bo'lishi zarur. Demak, akademik va moliyaviy mustaqillik tamoyllari OTM boshqaruvida yuqori samaradorlikni namoyon qilsada, mamlakatlardagi qonunchilik, bozor iqtisodiyoti jarayonini adolatli tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limga investitsiya kiritishni qo'llab quvvatlovchilar ko'p bo'lishini ham talab etadi.

Dissertatsiyaning «**Oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etishga doir tajriba-sinov ishlarini samaradorligi**» deb nomlangan to'rtinchi bobda oliy ta'limda akademik erkinlik tamoyilini joriy etishga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni va samaradorligi tahlil qilingan.

Tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadi oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga akademik mustaqillik tamoyillarini joriy qilish, ularda ana shu jarayon uchun asos sifatida ishlab chiqilgan nazariya, takomillashtirilgan boshqaruv modelining mazmuni hamda uni joriy etishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari Oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga akademik mustaqillik tamoyillarini tashkil etish, korporativ akademik mustaqillikni joriy etishga doir metod va vositalar samarador va yangicha boshqaruv ko'rinishi ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot doirasida «*Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish istiqbollari*» mavzusida maxsus so'rovnoma o'tkazildi.

Mazkur so'rovnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish Bosh ilmiy-metodik markazi xodimlari va tinglovchilarida, Farg'ona va Samarqanddagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi tinglovchilari hamda Farg'ona davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti va Namangan davlat universiteti, Andijon davlat universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti rahbar-kadrlari va professor-o'qituvchilari o'rtasida o'tkazildi.

Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini isloh qilish, unga yangicha tamoyillarni olib kirish, rivojlangan va ilg'or xorijiy OTMLarning tajribasini va boshqaruv modelini joriy etish uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy telegram kanalida «*Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga akademik mustaqillik prinsiplarini joriy etish istiqbollari (rivojlangan davlatlar tajribasi misolida)*» mavzusida maxsus so'rovnoma o'tkazildi.

Mazkur so'rovnomaning natijalari va statistik tahlilini o'tkazib, natijalarni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

So‘rovnomada Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy telegram kanali a’zolari va Oliy ta’lim tizimiga aloqador 1424 nafar ishtirokchi ishtirok etdi. Mazkur ishtirokchilarning 42 % yoki 598 nafari 25-35 yoshgacha, 31 %i yoki 441 nafari 36-45 yoshgacha, 19 % i yoki 271 nafari 46-55 yoshgacha, 8 % i 114 nafari 56 yosh va undan katta yoshdagilar tashkil qildi.

Shuningdek, ishtirokchilarning 2 %i prorektorlar, 3 %i dekanlar, 10 %i kafedra mudirlari, 3 %i bo‘lim boshliqlari, 9 %i dekan o‘rinbosarlari, 25 %i professor, dosent, katta o‘qituvchi, 48 %i asistent o‘qituvchini tashkil etdi.

So‘rovnomada 6 %i yoki 85 nafari Fan doktorlari (DSc), 15 %i yoki 213 nafari fan nomzodlari, 25 %i yoki 356 nafari falsafa doktori (PhD) va 54 %i yoki 769 nafari ilmiy unvonga ega bo‘lmaganlar ishtirok etdi.

Tajriba-sinov O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz negizida tashkil etilgan rahbar kadrlar tayyorlash kurslariga jalb etilgan respondent-tinglovchilar ishtirokida amalga oshirildi. Sinov ishlariga tajriba maydonlari sifatida qabul qilingan OTMdan jami 306 nafar respondent-tinglovchi jalb etildi. Jami respondent-tinglovchilarning tajriba-sinov maydoni bo‘lgan OTM bo‘yicha nisbati quyidagicha bo‘ldi.

1-jadval

Tajriba-sinov maydoni bo‘lgan OTM bo‘yicha respondent-tinglovchilarning nisbati

№	OTM	Respondentlar soni (nafar hisobida)
1.	Qo‘qon davlat pedagogika instituti	62
2.	Farg‘ona davlat universiteti	61
3.	Namangan davlat universiteti	60
4.	Andijon davlat universiteti	60
5.	O‘zbekiston Milliy universiteti	63
Jami		306

OTM bo‘yicha tajriba-sinov ishiga jalb qilingan respondent-tinglovchilar tasodifiy tanlov asosida tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirildi:

2-jadval

Tajriba-sinov maydoni bo‘lgan OTM bo‘yicha respondentlarning tajriba va nazorat guruhlarini nisbati

№	OTM	Respondentlar soni (nafar hisobida)	
		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	Qo‘qon davlat pedagogika instituti	31	31
2.	Farg‘ona davlat universiteti	31	30
3.	Namangan davlat universiteti	30	30
4.	Andijon davlat universiteti	30	30
5.	O‘zbekiston Milliy universiteti	31	32
Jami		153	153

3-jadval

Tajriba-sinov maydoni bo‘lgan OTM bo‘yicha respondentlarning umumiy ko‘rsatkichlari

№	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tinglovchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘rta	Past	Tinglovchilarning umumiy soni	Yuqori	O‘rta	Past
Qo‘qon davlat pedagogika instituti								
1	32	11	15	6	31	7	13	11
Farg‘ona davlat universiteti								
2	31	10	14	7	30	6	12	12
Namangan davlat universiteti								
3	30	9	15	6	30	5	14	11
Andijon davlat universiteti								
4	30	10	14	6	30	7	12	11
O‘zbekiston Milliy universiteti								
5	31	10	15	6	31	6	12	13
Umumiy	153	50	73	31	152	31	63	58
Umumiy o‘rtacha	31	10	15	6	30	6	13	12

Matematik-statistik tahlil qilish uchun o‘rtacha umumiy ballni olindi. Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba-sinov ishlari yakunidagi umumiy ko‘rsatkichlari quyidagicha:

4-jadval

Nazorat va tajriba-sinov guruhlarining tajriba yakunidagi umumiy ko‘rsatkichlari

Guruhlar	Respondentlar soni	Javoblar		
		Yuqori (5)	O‘rta (4)	Past(3)
Tajriba guruhi	31	10	15	6
Nazoratguruhi	30	6	13	12


Tajriba avvalida tajriba guruhi va nazorat guruhidagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2 - tanlanmalar deb olsak, quyidagi variatsion qatorlarga ega bo‘lamiz.

5-jadval

1-tanlanma	X_i	Yuqori (5)	O‘rta (4)	Past(3)
Tajriba guruhi n_i		10	15	6
1-tanlanma				
Nazorat guruhi m_j	Y_j	Yuqori (5)	O‘rta (4)	Past(3)
	6	13	12	n=30.

